ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Yusupov Murodali Sunnatovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o`qituvchisi f.f.b.f.d., (Phd)

Mingyasharov Murodbek Abdulla o`g`li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Iqtisodiyot fakulteti talabasi

O‘ZBEKISTON — DINIY BAG‘RIKENGLIK MARKAZI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglikni ta’minlash siyosati tahlil qilinadi. Asosiy maqsad — turli din vakillari o‘rtasidagi totuvlikning ahamiyatini yoritish.. Jamiyat barqarorligida bag‘rikenglikning o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, davlat siyosati va huquqiy asoslar ko‘rib chiqiladi. Ilmiy yangilik sifatida milliy tajribaning o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatiladi.

Kalit so`zlar: diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, diniy erkinlik, davlat siyosati, ijtimoiy barqarorlik, konfessiyalararo munosabatlar, huquqiy asoslar

Kirish.

Bugungi globallashuv sharoitida diniy bag‘rikenglikni ta’minlash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, turli din va millat vakillari yashaydigan jamiyatlarda o‘zaro hurmat va totuvlikni mustahkamlash barqaror taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Mazkur maqolaning obyekti O‘zbekistonda shakllangan diniy bag‘rikenglik muhitidir. Predmeti esa davlatning diniy bag‘rikenglikni ta’minlashga qaratilgan siyosati hamda uning amaliy natijalaridan iborat. Maqolada tadqiqotning maqsadi sifatida mamlakatda diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash yo‘lidagi islohotlar va ularning ahamiyatini tahlil qilish asos sifatida olinadi. Shundan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglikning huquqiy asoslarini o‘rganish, davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilish, jamiyatda konfessiyalararo totuvlikni ta’minlash mexanizmlarini yoritish hamda milliy tajribaning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash.

Adabiyotlar sharxi.


Mazkur mavzu doirasida diniy bag‘rikenglik masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch” asarida jamiyatda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev nutq va ma’ruzalarida diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ta’kidlanadi. Ushbu maqolada O‘zbekistonning zamonaviy rivojlanish bosqichida diniy bag‘rikenglikni ta’minlash borasidagi yangicha yondashuvlar, amaliy islohotlar va ularning natijalari kompleks tarzda tahlil qilingan

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda qiyosiy taqqoslash metodidan foydalanildi. Ushbu metod orqali O‘zbekistondagi diniy bag‘rikenglik siyosati boshqa davlatlar tajribasi bilan solishtirildi. Tahlil jarayonida turli mamlakatlarda konfessiyalararo munosabatlarni tartibga solish mexanizmlari o‘rganildi. Natijada O‘zbekiston tajribasining o‘ziga xos jihatlari va ustun tomonlari aniqlab berildi.

Tahlil va natijalar.

Mazkur tadqiqot doirasida O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik holatini aks ettiruvchi statistik va amaliy ma’lumotlar tahlil qilindi. Unga ko`ra O‘zbekiston modeli — bu "Dunyoviylik — dindorsizlik emas" tamoyiliga asoslangan barqaror model ekanligi xulosalandi. So‘nggi yillarda diniy tashkilotlar sonining ortib borayotgani va ularning faoliyati uchun yaratilgan shart-sharoitlar ijobiy tendensiya sifatida baholandi. Ya`ni, Diniy tashkilotlar sonining oshishi jamiyatda e’tiqod erkinligi amalda ta’minlanayotganidan dalolat beradi. Mavjud muammolarni bartaraf etish uchun "Jaholatga qarshi ma’rifat" tamoyilini raqamli makonda yanada kuchaytirish lozimligi aniqlandi.



Tahlil natijalariga ko‘ra, mamlakatda diniy bag‘rikenglik muhiti shakllangan bo‘lib, Islom dini tashkilotlari ustunlik qiladi. Shu bilan birga boshqa konfessiyalar ham erkin faoliyat yuritmoqda. Islom dini ustuvorligiga qaramay, nasroniylik, yahudiylik va buddizm kabi dinlarning erkin faoliyat yuritishi davlatning dunyoviylik va bag‘rikenglik siyosatini amalga oshirayotganining amaliy tasdig‘idir. Umuman olganda, olib borilgan tahlillar O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglikni ta’minlash borasida ijobiy natijalarga erishilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni bartaraf etish orqali ushbu sohani yanada rivojlantirish zarurligi asoslab berildi.

ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Xulosa.

Mazkur tadqiqot natijalari O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglikni ta’minlash borasida izchil va samarali siyosat olib borilayotganini ko‘rsatadi. Mamlakatda turli din va konfessiya vakillarining erkin faoliyat yuritishi uchun zarur huquqiy va ijtimoiy sharoitlar yaratilgan. Bu esa jamiyatda tinchlik, barqarorlik va o‘zaro hurmat muhitining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston tajribasi diniy bag‘rikenglikni ta’minlashda o‘ziga xos model sifatida e’tirof etilishi mumkin. Shu bilan birga, ayrim muammolar, xususan, diniy savodxonlikni oshirish va yoshlar ongida to‘g‘ri qarashlarni shakllantirish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Xulosa qilib aytganda, diniy bag‘rikenglikni yanada rivojlantirish uchun mavjud ijobiy tajribani mustahkamlash, ma’rifiy ishlarni kuchaytirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va diniy sohadagi normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami

3. Karimov N., Jo‘raev T. O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik masalalari. – Toshkent: Fan, 2020.